



**COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF THE
CONCEPTS OF "FAMILY" AND "WOMAN" IN THE WORKS
OF ELENA FERRANTE AND UZBEK PROSE**

Muzafarova Dilrabo Akramovna

2nd-year Master's student at the
Samarkand State Institute of Foreign Languages
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20391495>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 24th May 2026

Online: 25th May 2026

KEYWORDS

Concept, female image,
family institution, Elena
Ferrante, comparative
linguistics, lexical-
semantic analysis,
sociolinguistic codes,
individualism, patriarchal
environment.

ABSTRACT

This article provides a comparative linguistic and literary analysis of the works of the prominent contemporary Italian author Elena Ferrante ("The Neapolitan Quartet") and examples of Uzbek prose (Said Ahmad, Isajon Sulton, and others). The main objective of the research is to uncover the formation, lexical-semantic features, and socio-psychological transformation of the "woman" and "family" concepts within two distinct cultural-linguistic spheres. The analysis reveals that while Ferrante's works emphasize the female personality's quest for liberation from a patriarchal environment, characterized by "rebellious" lexis and individualism, Uzbek prose predominantly presents the "family" concept through stable linguistic codes such as "sanctity," "patience," and "ancestral heritage." The paper employs a comparative-typological method to examine the evolution of the female image in both literatures and the role of linguistic devices (metaphor, epithet, internal monologue) in revealing the protagonist's inner world. The research conclusions provide a scientific basis for understanding the similarities and differences in the interpretation of human and family values in national literatures under the conditions of globalization.

**СРАВНИТЕЛЬНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТОВ
«СЕМЬЯ» И «ЖЕНЩИНА» В ТВОРЧЕСТВЕ ЭЛЕНА ФЕРРАНТЕ И
УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ**

Музафарова Дилрабо Акрамовна

магистрант 2 курса

Самаркандского государственного института иностранных языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20391495>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 24th May 2026

Online: 25th May 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье проводится сравнительно-лингвистический и литературоведческий анализ произведений яркого представителя современной



Концепт, женский образ, институт семьи, Елена Ферранте, сравнительная лингвистика, лексико-семантический анализ, социолингвистические коды, индивидуализм, патриархальная среда.

итальянской литературы Элены Ферранте («Неаполитанский квартет») и образцов узбекской прозы (Саид Ахмад, Исажон Султон и др.). Основная цель исследования — раскрыть процесс формирования концептов «женщина» и «семья» в двух различных культурно-лингвистических пространствах, а также выявить их лексико-семантические особенности и социально-психологические трансформации. В ходе анализа выявлено, что если в произведениях Ферранте акцент делается на стремлении женской личности к освобождению от патриархальной среды, что проявляется в «бунтарской» лексике и индивидуализме, то в узбекской прозе концепт «семья» репрезентируется через такие устойчивые лингвистические коды, как «святость», «терпение» и «наследие предков». В статье с помощью сравнительно-типологического метода исследуется эволюция женского образа в обеих литературах, а также роль языковых средств (метафора, эпитет, внутренний монолог) в раскрытии внутреннего мира героини. Выводы исследования научно обосновывают сходства и различия в интерпретации человеческих и семейных ценностей в национальных литературах в условиях глобализации.

ELENA FERRANTENING ASARLARI VA O'ZBEK NASRIDA "OILA" HAMDA "AYOL" KONTSEPTLARINING QIYOSIY LINGVISTIK TAHLILI

Muzafarova Dilrabo Akramovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20391495>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 24th May 2026

Online: 25th May 2026

KEYWORDS

Kontsept, ayol obrazi, oila instituti, Elena Ferrante, qiyosiy lingvistika, leksik-semantik tahlil, sotsiolingvistik kodlar, individualizm, patriarxal muhit.

ABSTRACT

Ushbu maqola zamonaviy italyan adabiyotining yorqin vakili Elena Ferrante asarlari ("Neapolitan tetralogiyasi") va o'zbek nasri namunalari (Said Ahmad, Isajon Sul-ton va boshqalar) qiyosiy lingvistik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - ikki xil madaniy-lingvistik makonda "ayol" va "oila" kontseptlarining shakllanishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda ijtimoiy-psixologik transformatsiyasini ochib berishdan iborat.

Tahlil jarayonida Ferrante asarlarida ayol shaxsiyatining patriarxal muhitdan ozod bo'lishga intilishi, "isyonkor"



leksika va individualizmning ustunligi kuzatilsa, o'zbek nasrida "oila" kontsepti ko'proq "muqaddaslik", "sabr-toqat" va "ajdodlar merosi" kabi barqaror lingvistik kodlar orqali ifodalanishi aniqlangan. Maqolada har ikki adabiyotdagi ayol obrazining evolyutsiyasi, til vositalarining (metafora, epitet, ichki monolog) qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni qiyosiy-tipologik metod yordamida o'rganiladi. Tadqiqot xulosalari globalizatsiya sharoitida milliy adabiyotlarda inson va oila qadriyatlari talqinidagi o'xshashliklar va tafovutlarni ilmiy asoslab beradi.

Kirish

Adabiyot - inson shaxsiyatining ko'zgusi, til esa bu ko'zguni shakllantiruvchi vositadir. "Oila" va "ayol" kontseptlari jahon adabiyoti tarixida eng ko'p murojaat qilingan, ammo har bir madaniyatda o'ziga xos talqinga ega bo'lgan tushunchalardir. XXI asr adabiyotida Elena Ferrante o'zining "Neapolitan tetralogiyasi" orqali ayollik ontologiyasini tubdan yangiladi. O'zbek nasrida esa ayol obrazi an'anaviy "fidoyi ona" qiyofasidan zamonaviy "individual shaxs" qiyofasiga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi - ikki xil madaniy-lingvistik makon vakillari bo'lgan Ferrante va o'zbek yozuvchilari asarlaridagi mazkur kontseptlarni qiyosiy tahlil qilishdir.

Lingvokulturologiyada kontsept - bu madaniyatning tilga "o'ralgan" birligi bo'lib, u o'zida tarixiy va ijtimoiy tajribani jamlaydi. "Oila" va "ayol" kontseptlari ham statik emas, balki dinamik xarakterga ega.

Italiya, ayniqsa, Neapol madaniyatida oila - bu qat'iy ierarxiya va kuchli ijtimoiy nazorat maydoni. O'zbekiston madaniyatida esa oila -

"muqaddas o'choq", "ajdodlar merosi" va "kengaytirilgan qarindoshlik tizimi. Ushbu ikki xil ijtimoiy institut qahramonlar tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ferrante asarlarida "oila" tushunchasi ko'pincha qahramonning o'zligini topishiga to'sqinlik qiluvchi "yopiq qafas" sifatida, o'zbek nasrida esa "himoyalovchi qalqon" sifatida tilga olinadi.

Elena Ferrante ijodida "ayol" va "oila" kontsepti: isyon va ozodlik

Ferrante qahramonlari (Lenu va Lila) uchun "ayol" bo'lish - bu kurashishdir. Masalan, "L'amica geniale" ("Mening daho dugonam") asaridagi qo'g'irchoqlar epizodida Lila va Lenuning qo'g'irchoqlarini "Don Akile"ning yerto'lasiga tashlab yuborish epizodi. Bu yerda "oila" kontsepti qo'rquv va hokimiyat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Lila uchun bo qo'g'irchoq - u o'zligini aks ettiradigan yagona narsa. Uni tashlab yuborish - bu patriarxal muhit (yerto'la, qorong'ulik, erkaklar hukmi) tomonidan ayollik qiyofasining jazolanishi. *Lingvistik nuqtai nazardan:* Ferrante bu yerda "yo'qotish" va "o'g'irlash" fe'llarini ishlatib, oilaviy muhitning qiz bolaning "subyektiv"



olamini qanday toraytirganini ko'rsatadi. Ayol bu yerda hali shakllanmagan, lekin uning "men"i allaqachon oila institutining bosimi ostida qolgan. Lilaning nikoh to'yi epizodida esa Lila o'z oilasi va mahallasi qoidalariga bo'ysunib, badavlat Stefano bilan turmush quradi. Bu epizodda "oila" - ayolning ijtimoiy ko'tarilish vositasi emas, balki "yashash uchun sotib olingan qafas" sifatida talqin etiladi. To'y libosi, boylik va mehmondorchilik - bular ayolning shaxsiyatini yopib turuvchi pardalardir. Ferrante bu yerda "chiroyli", "boy", "baxtli" kabi sifatlarning aslida qanchalik soxta ekanligini, qahramonning ichki monologidagi "nafrat" va "qo'rquv" leksikasi orqali ochib beradi. Ayolning oila qurishi - bu uning shaxsiy erkinligidan voz kechish akti sifatida yoziladi. Lenuning universitet hayoti epizodida esa Lenu Piza shahriga o'qishga ketadi. Bu epizodda "oila" uzoqlashadi, lekin uning ta'siri (tillar, sheva, onaning ovozi) Lenuning ongida qoladi. "Ayol" kontsepti bu yerda "ta'lim oluvchi", "fikrlaydigan" shaxsga aylanadi. Lenu oilasidan jismonan uzoqlashgan bo'lsa-da, til jihatidan o'zini hali ham "neapolitanlik" deb his qiladi. Bu yerda "ayol" - bu oilaning an'analari va shaxsiy intilishlari o'rtasida bo'linishidir. Lingvistik jihatdan Lenu o'z nutqini to'g'rilashga, dialektdan qutilishga urinishi - uning "ayol" sifatida o'zligini qayta qurish urinishidir.

Said Ahmadning "Ufq" triologiyasidagi Dildor obraziga to'xtalsak. Ikkinchi jahon urushi davri va undan keyingi qiyinchiliklar. Dildorning uyda yolg'iz qolishi, ro'zg'or yukini tortishi. Bu yerda "oila" - saqlanishi kerak bo'lgan muqaddas o'choq. Dildor uchun

"ayol" bo'lish - bu "chidam", "sabrlik" va "metinlik". Ferrante qahramonlaridan farqli o'laroq, Dildor oiladan qochishga emas, uni "saqlab qolishga" intiladi. Lingvistik jihatdan Said Ahmad Dildorga nisbatan "o'tda yonmas, suvda cho'kmas", "sabri-toqatli" kabi frazeologizmlarni ishlatadi. Ayolning kuchi uning oila oldidagi "burch" tuyg'usida aks etadi. Ismat bilan munosabatlariga to'xtalib o'tsak, Ismatning tushunmovchiliklar tufayli ketishi va Dildorning ichki monologi - bu o'z dardini boshqalarga (yoki jamiyatga) bildirmaslik, ichkarida pishib yetilish. Bu yerda "ayol" - bu sirlar posboni. Ferrantedagi "isyon" o'rnini o'zbek nasrida "vafodorlik" egallaydi. Ayolning o'zligini topishi oilasidan voz kechishda emas, balki oilasi uchun qurbonlik qilishda namoyon bo'ladi. "Ufq"ning yakuniy qismida esa Dildor farzandlari bilan bo'lgan munosabati va oilaning qayta birlashishi. Bu yerda "oila" - inson hayotining ma'nosidir. "Ayol" esa shu ma'noning markazida turuvchi tayanch. Said Ahmad Dildor obrazi orqali o'zbek ayolining klassik idealini yaratadi. Lingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, Dildorning nutqida "oila", "farzand", "yurt", "or-nomus" kabi leksemalar ustuvorlik qiladi. Bu "ayol" kontseptining "oila" kontsepti bilan to'liq integratsiyalashganini ko'rsatadi.

Kontseptual lug'at va kontekstual o'zgarishlar. "Ayol" va "oila" kontseptlari atrofidagi leksemalarning semantik maydoni ikki adabiyotda keskin farqlanadi.

Elena Ferrante leksikasi (dinamika va inqilob).



Asosiy fe'llar: *qochmoq (fuggire), yirtmoq (strappare), o'rganmoq (imparare), o'zgaroq (diventare).*

Sifatdoshlar: *Isyonkor, bo'lingan, mustaqil, subyektiv, tushunarsiz.*

Kontekstual tahlil: Ferrante matnida "qochmoq" fe'li nafaqat jismoniy harakat, balki "oila" ta'siridan psixologik ozodlikka chiqishni anglatadi. "Isyonkor" sifatdoshi ayolning patriarxal qoidalarga qarshi nutqini tavsiflaydi. Bu yerda til - bu qahramonning o'zligini yaratish quroli.

O'zbek nasri leksikasi (statika va mustahkamlik).

Asosiy fe'llar. *Saqlamoq, chidamoq, asramoq, sabr qilmoq, o'zini tiymoq.*

Sifatdoshlar: *Sabrli, vafoli, fidoyi, iffatli, og'ir-bosiq*

Kontekstual tahlili: O'zbek nasrida "saqlamoq" fe'li juda keng ma'noli. U nafaqat oila a'zolarini, balki "nomusni", "an'anani" va "oilaviy obro'ni" saqlashni anglatadi. "Sabrli" sifatdoshi esa passivlikni emas, balki hayotiy qiyinchiliklar qarshisida insonning ruhiy matonatini ifodalaydi.

Demak, Ferrante matnida "ayol" - bu *jarayon* (o'zgarish), o'zbek nasrida esa "ayol" - bu *holat* (sabr). Birinchisida "men" dominant bo'lsa, ikkinchisida "biz" (oila) dominantdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili: nazariy qarashlar

Mavzuni ilmiy jihatdan asoslashda quyidagi manbaalar va nazariyalar tayanch hisoblanadi:

Simone de Beauvoir ("Ikkinchi jins"): Uning: "Ayol bo'lib tug'ilmaydilar, ayol bo'lib shakllanadilar" degan nazariyasi Ferrante qahramonlarining shakllanish jarayonini tushuntirishda

asosiy kalitdir. Ferrante aynan shu falsafiy tezisni romanlari orqali badiiy tasdiqlaydi.

Umberto Eco ("Adabiyot haqida): Ekoning italyan adabiy tili va dialekt haqidagi fikrlari Ferrantening matnida "sheva" (oila/qoloqlik) va "adabiy til" (erkinlik) o'rtasidagi farqni tahlil qilish uchun juda muhim.

Naim Karimov ("O'zbek adabiyoti tarixi" tadqiqotlari): Said Ahmad 20-asr nasrini o'rganishda Karimovning qarashlari ayol obrazining sotsialistik va milliy kontekstda qanday o'zgartirishni tushunishga yordam beradi.

Virjiniya Vulf ("O'z xonasi"): Vulfning "ayol kishiga yozishi uchun pul va alohida xona kerak" degan g'oyasi Ferrante va zamonaviy o'zbek ayol yozuvchilari uchun ham dolzarb. Bu "oila" kontseptining ayol ijodiga to'sqinligi mavzusini ochib beradi.

Ulug'bek Hamdam ("Badiiy asar tahlili"): Hamdamning psixologik nasr haqidagi qarashlari o'zbek nasrida qahramonning ichki monologi va uning oila bilan bo'lgan munosabatini lingvistik va badiiy tahlil qilishda nazariy asos bo'ladi.

G'arb adabiyotshunosligi (Beauvoir, Vulf) ayolni "oila qafasida ozod bo'lish" nuqtai nazaridan baholasa, o'zbek adabiyotshunosligi (Karimov, Hamdam) ayolni "oilaning ma'naviy ustuni" o'laroq ulug'laydi. Bizning tadqiqotimiz esa ushbu ikki qarashning zamonaviy o'zbek nasrida qanday tutashib borayotganini tahlil qiladi.

Xulosa

Elena Ferrante asarlari va o'zbek nasrini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, globalizatsiya jarayonlari ayolning o'zligini anglash tendensiyasini



dunyo bo'ylab bir xillashtirmoqda. Biroq, til - bu milliy madaniyat qo'rg'oni. Agar Ferrante asarlarida ayol "yengib o'tish" orqali ozodlikni izlasa, o'zbek nasrida ayol "o'zgartirish" orqali an'analar orqali ichida yangi imkoniyatlar yaratishga harakat qilmoqda.

Har ikki adabiyotda ham "oila" - qahramonning psixologik portretini chizuvchi asosiy fon bo'lib qolmoqda. Farq shundaki, biri bu fondan qochib chiqishni, ikkinchisi esa uni qayta shakllantirishni maqsad qiladi.

References:

1. Ferrante, E. (2012). My Brilliant Friend (Neapolitan Novels, Book 1). Translated by Ann Goldstein. New York: Europa Editions.
2. Ferrante, E. (2013). The Story of a New Name (Neapolitan Novels, Book 2). Translated by Ann Goldstein. New York: Europa Editions.
3. Said Ahmad. (2017). Ufq (Trilogiya). Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Isajon Sulton. (2019). Boqiy darbadar (Roman va hikoyalar). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Askoldov, S. A. (1997). Konsept va so'z. Rus nutqi, № 2, 28–33-b.
6. Beauvoir, S. de. (2011). The Second Sex. Translated by Constance Borde and Sheila Malovany-Chevalier. New York: Vintage Books.
7. Eco, U. (2005). On Literature. London: Vintage.
8. Hamdam, U. (2018). Badiiy tafakkur evolyutsiyasi (Monografiya). Toshkent: Turon zamin ziyo.
9. Karimov, N. (2015). XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
10. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya (O'quv qo'llanma). Moskva: Akademiya.
11. Vorobyov, V. V. (1997). Lingvokulturologiya (nazariya va metodlar). Moskva: RUDN.
12. Woolf, V. (2004). A Room of One's Own. London: Penguin Books.
13. Yo'ldoshev, Q. (2006). Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak.
14. Quronov, D. (2021). Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati va kontseptual tahlil masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, № 4, 12–18-b.
15. Shomaqsudov, A. (2023). O'zbek nasrida oilaviy qadriyatlar va ayol psixologiyasining lingvistik ifodalanishi. Filologiya masalalari, № 2, 45–52-b.